

XO'JALIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI

Jabborova Oysara Baxtiyor qizi

Azimova Mohida Yusupbay qizi

Muhammadjonova Rayhona Zafar qizi

Guliston davlat universiteti

“Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar” fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan. Korxonaning iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilinib, ishlab chiqarish, mehnat va moliyaviy resurslardan foydalanish darajasi baholanadi. Shuningdek, samaradorlikni oshirishga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar, jumladan, boshqaruvni takomillashtirish, innovatsiyalarni joriy etish hamda xarajatlarni optimallashtirish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Xo'jalik faoliyati, samaradorlik, rentabellik, iqtisodiy ko'rsatkichlar, boshqaruv, innovatsiyalar.

Kirish. Xo'jalik faoliyati mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va aholi turmush darajasini yaxshilashda muhim o'rin tutadi. Samaradorlikni oshirish esa mavjud resurslardan maksimal darajada unumli foydalanishni, ishlab chiqarish jarayonlarini yanada takomillashtirishni talab qiladi.

Xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish sohasida bir qancha muammolar mavjud bo'lib, ularning asosiy sabablari turli omillar bilan bog'liq. Birinchidan, resurslardan samarasiz foydalanish muammosi ustuvor ahamiyatga ega. Masalan, yer maydonlarining noto'g'ri taqsimlanishi, agrotexnik tadbirlarning yetarlicha amalga oshirilmasligi va ishlab chiqarish jarayonlarida mehnat hamda moddiy-texnika resurslarining o'rinsiz sarflanishi mavjud samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Fermerlarning yerga egalik huquqlarining zaif himoyasi esa ularni uzoq muddatli investitsiya qilishdan to'xtatib qo'yadi. Ikkinchidan, boshqaruv tizimidagi qiyinchiliklar, ya'ni ma'muriy-buyruqbozlik, bozor mexanizmlarining to'liq ishlamasligi va investitsiya faolligining pastligi ishlab chiqarish samaradorligini pasaytiradi. Bu holat iqtisodiyotning turli tarmoqlarida o'z aksini topadi. Uchinchidan, ekologik va iqlim o'zgarishlari ham qishloq xo'jaligi samaradorligini susaytiradigan salbiy omillar hisoblanadi. Tuproq degradatsiyasi, suv resurslarining ifloslanishi va iqlim o'zgarishi ishlab chiqarishning barqarorligini xavf ostiga qo'yadi. Muammolarni bartaraf etish uchun bir qator yechimlar taklif qilinadi. Eng avvalo, yer resurslarini oqilona va samarali taqsimlash, yuqori rentabellikka ega ekinlar maydonlarini kengaytirish hamda zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish zarur. Fermerlarning yerga egalik huquqlari qonuniy himoyasini mustahkamlash va uzoq muddatli

investitsiyalar uchun qulay sharoit yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, ma'muriy-buyruqbozlikni kamaytirish va bozor mexanizmlarini yanada rivojlantirish ham samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ekologik barqarorlikni ta'minlash choralarini ko'rish, ya'ni tuproq va suv resurslarini himoya qilish, iqlim o'zgarishlariga moslashish ham zarur hisoblanadi. Ilm-fan va innovatsiyalarni keng qo'llash orqali ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardoshlikni oshirish mumkin. Shunday qilib, xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish uchun iqtisodiy, ekologik va tashkiliy muammolarga tizimli yondashuv talab etiladi. Bu yechimlar mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash hamda aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Korxona faoliyati samaradorligini baholash usullari.

Ma'lumotlarni tahlil qilishning asosiy usullari	Tahlil turlari
Trendli	Korxona faoliyati samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning bir necha yillik davrdagi qiymati o'zgarishi dinamikasini tahlili
Tarkibiy	- Foyda shakllanadigan korxona faoliyati yo'nalishlarining tarkibiy tahlili - Foydaning mahsulot (xizmat) turlari bo'yicha tarkibi tahlili - Korxona aktivlari dinamikasining tarkibiy tahlili - Korxona foydasi foydalanilishining tarkibiy tahlili
Taqqoslama	- Hisobot yilidagi haqiqiy ko'rsatkichlarni hisobot yilining reja ko'rsatkichlari bilan taqqoslash - Hisobot yilidagi haqiqiy ko'rsatkichlarini basis yilining haqiqiy ko'rsatkichlari bilan taqqoslash - Korxonada samaradorlik ko'rsatkichlarining taqqoslama tahlili
Omili	- Korxona tushumlarining omilli tahlili Korxona foyda ko'rsatkichlarining omilli tahlili - Mehnat resurslaridan foydalanishning omilli tahlili Ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning omilli tahlili

Keltirilgan jadvalda xo'jalik faoliyati samaradorligini baholashda qo'llaniladigan asosiy usullar va tahlil turlari tizimli tarzda ko'rsatilgan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, ma'lumotlarni tahlil qilishda trendli, tarkibiy, taqqoslama va omilli usullar keng qo'llaniladi. Ushbu jadval korxona faoliyatining samaradorligini tahlil qilishda, uning kuchli hamda zaif tomonlarini aniqlash, har bir ko'rsatkichning o'zgarishi sabablarini

chuqur o'rganish va natijada boshqaruvda optimal qarorlar qabul qilish uchun asosiy metodologik yo'nalish sifatida foydalaniladi.

Xulosa. Xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, tannarxni kamaytirish va mehnat unumdorligini oshirish orqali erishiladi. Bu esa nafaqat iqtisodiy samarani yaxshilaydi, balki bozor raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Shunday qilib, samaradorlikni oshirish mamlakat iqtisodiyotining sarmoyaviy va ijtimoiy rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Volume-46_Issue-3_February_2024 www.newjournal.org
2. R.I.GIMUSH, F.M.MATMURODOV, S.I.AHMEDOV, B.A. LESHENKO
ISHLAB CHIQARISH IQTISODIYOTI O'QUV QO'LLANMA TOSHKENT
<https://www.geostudy.uz>
3. A.S.SULTONOV, Z.Ya.XUDOYBERGANOV, S.A.QO'ChQOROVA SUV
XO'JALIGI IQTISODIYOTI O'zbekiston Respublikasi —Sharql nashriyoti
Toshkent – 2007 <https://staff.tiame.uz>
4. NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI IQTISODIYOT FAKULTETI
“MENEJMENT” KAFEDRASI “RISKLARNI BOSHQARISH” fanidan O'QUV-
USLUBIY MAJMUA NAMANGAN -2024 YIL <https://namdu.uz>